

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MAYL SHAKLLARI VA ULARNING GAP SEMANTIKASIGA TA'SIR ETISH YO'LLARI

Usmonova Dono Sotvoldiyevna

Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti,
Ingliz tili kafedrası, katta o'qituvchi

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti,
Ingliz tili kafedrası, katta o'qituvchi, PhD

Ibrohimova Dilyora Inomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika
(ingliz tili) yo'nalishi, 2-bosqich magistranti
dilyoratolqinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7891534>

Annotatsiya: Mazkur maqolada biz o'zbek va ingliz tilidagi mayl shakllari va ularning gap semantikasiga ta'sir etish yo'llari tahlilini amalga oshiramiz va mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Kalit so'zlar: til, mayl, gramatik kategoriya, gramatik struktura, fe'l, struktur tasnif, gramatik tasnif, mano-munosabatlar.

Tilshunoslikning eng muhim va asosiy qismlaridan biri bu grammatikadir. Grammatika ko'plab tilshunoslik atamasi kabi ikki ma'noli. Bir ma'nosida tilning qurilishi tushunilsa, ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu grammatik qurilishni o'rganuvchi sohasi anglashiladi. Demak, u so'z va gapning formal – grammatik tomoni – so'z o'zgarishi, sintaktik birliklar va ularning turli ko'rinishi, strukturasi va hosil qiluvchi vositalari, shuningdek, ifodalaydigan grammatik ma'nosini o'rganadi. Biz grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis yaxlitligi, keng ma'noda tilning barcha qurilish sathi tushuniladi. Aytganimizdek, grammatika tilning so'z o'zgartirish va so'z biriktirish qoidalari haqida bo'lib, bunda so'z o'zgartirish doirasida so'z shakllari, so'z shakllarini hosil qiluvchi grammatik kategoriya va o'zgarish asosida farqlanuvchi so'zning grammatik guruhi – so'z turkumi hamda bu hodisalarning mahsuli bo'lishi, so'z birikmasi va gap bir vujudning ikki tomoni sifatida ajraladi. Bu o'z – o'zidan ularni o'rganuvchi ikki soha morfologiya va sintaksisni farqlashni ham toqazo qiladi.

Morfologiyani – ob'ekti so'zning o'zgarish bilan bog'liq, ya'ni morfologik strukturasi. So'zning morfologik strukturasi – grammatik morfema, grammatik morfemasi sistemasi – morfologik kategoriya, so'zning o'zgarish asosidagi sistemasi (masalan, kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan [kitob] leksemasining kelishik kategoriyasi asosidagi o'zgarish sistemasi), so'z shaklining hosil bo'lish yo'li va usuli, vositasi, bu vositalarning turlari.

Tilshunoslikda yana grammatik kategoriya tushunchasi ham mavjud. Kategoriya atamasi tilshunoslikka falsafadan kirgan termin. U falsafada "ob'ektiv borliq va bilishdagi, mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha" tarzida ta'riflanadi. Falsafada ham tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va alohidalik xos bo'lishi shart. Falsafada juftlikni sabab natija, mohiyat – hodisa, butun qism, alohidalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda kategoriya atamasi ostida zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko'plik (kishilik kategoriyasi) tushuniladi. bugungi

tilshunosligimizda grammatik kategoriya atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriya'ni tan olish ustuvor. Umuman, sintaktik kategoriya ham grammatik kategoriya sifatida qaralsa-da, xususiylashuv hollarda, ya'ni sintaktik tekshirishlarda kategoriya tushunchasi e'tiborga molik ahamiyat kasb etadi. Bunga qo'shib bo'lmaydi albatta.

Butun uchun qism va ular orasidagi munosabat, sistema uchun element va ularni birlashtiruvchi aloqa shart va zarur bo'lgan kabi grammatik kategoriya uchun ham (ayni paytda morfologik hadisa haqida so'z yuritayotganimiz tufayli grammatik kategoriya atamasi ostida morfologik kategoriya'ni nazarda tutamiz) aloqa va aloqada turuvchi birlik zarur. Muayyan ma'no umumiyliги ostida birlashgan va o'zaro bu ma'noning parchalanishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi grammatik kategoriya hisoblanadi. Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum bir turdagi shakllarning umumiy ma'no asosidagi barqaror munosabati tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlik. Bunda umumiylik va farq umumiy ma'no asosida bo'lishi kerak. Buni yorqin idrok etish uchun kelishik kategoriyasi va ravishdoshlarni grammatik kategoriya tushunchasiga munosabat nuqtai nazardan kuzatish yetarli.

Fe'l asosida ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi, so'zlovchining fe'ldan anglashilgan harakat-holatga munosabatini bildirgan, ya'ni harakatning ijro qilinish-qilinmasligi, harakatni bajarishga da'vat etish yoki harakatni bajarish sharti kabilarni bildirgan, kesimdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalovchi va gapkesimini shakllantirishda ishtirok etadigan fe'l shakllari tizimiga mayl kategoriyasideyiladi. Bunda fe'llar so'zlovchining harakat-holatga bo'lgan munosabatiga ko'raxabar mayli, buyruq-istak mayli, shart mayli kabi turlarga bo'linadi.

■ Xabar mayli. Harakat yoki holatning bajarish-bajarilmasligi, ijro qilinish-qilinmasligi haqidagi xabar, darakni ifodalovchi fe'l shakli – maxsus ko'rsatkichga ega emas, nol shakl bilan ifodalanadi: keldi, bordim, ishlamoqda, yozasan.

■ Buyruq-istak mayli. Harakat yoki holatning bajarish-bajarilmasligi, ijro qilinish-qilinmasligi haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildiradi – -(a)y, -(a)yin, -gin, -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar, -sinlar shakllari bilan ifodalanadi: boray, kelayin, o'qigin, ishlang, tasavvur qilsin, ko'raylik, tinglanglar, buyursinlar.

■ Shart mayli. Boshqa bir harakat yoki holatning bajarish-bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni, shuningdek, istak-xohishni bildiradi – -sa, -sa edi, -ganda edi, -gan ekan shakli bilan ifodalanadi: gullasa, to'ldirsa edi, bilganda edi, kulgan ekan.

References:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2009. 414 bet
2. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. Toshkent. "O'qituvchi", 1978. 255 bet.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. "O'zbekiston", 1992. 200 bet.
4. Bo'ronov J. B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1973. 284 bet.
5. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3 (10), 126–128.
6. Mukhammad, K. K., & ogli Melikuziev, A. L. (2022, December). THE ESSENCE OF NONVERBAL COMMUNICATION. In *INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 19, pp. 91-93)*.

7. o'gli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.

INNOVATIVE
ACADEMY